



SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNI RAG'BATLANTIRUVCHI IQTISODIY OMILLAR

Otaboyev Umrubek Umidbek o'g'li

Xalqaro Nordik universiteti

Asistent o'qituvchisi

u.otaboyev@nordicuniversity.org

ORCID: 0009-0008-7269-945

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17485720>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2025

Accepted: 28th October 2025

Published: 30th October 2025

KEYWORDS

Yashil iqtisodiyot, sanoat korxonasi, iqtisodiy omillar, investitsiyalar, energiya tejamkorlik, ekologik barqarorlik, innovatsiyalar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi va uni rag'batlantiruvchi iqtisodiy omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish hamda resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish imkoniyatlari o'rganiladi. Maqolada iqtisodiy rag'batlar, soliq imtiyozlari, ekologik investitsiyalar va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, O'zbekiston sanoat korxonalarining amaliy tajribasi asosida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlar va istiqbolli yechimlar ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot modelini sanoat tarmoqlarida samarali tatbiq etish uchun iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

Kirish

So'nggi yillarda global iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish masalalari markaziy o'rinni egallamoqda. "Yashil iqtisodiyot" tushunchasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2012-yil Rio+20 sammitida xalqaro miqyosda rasmiy e'tirof etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni saqlab qolgan holda atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, ijtimoiy farovonlikni oshirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishdir.

O'zbekiston ham bu global tendensiyadan chetda emas. Mamlakatda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi - 2030" qabul qilinib, sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va uglerod izini kamaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon, bir tomondan, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan - iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot tamoyillarini sanoat korxonalariga joriy etish murakkab iqtisodiy mexanizmlarni talab qiladi. Bunda asosiy omillardan biri - rag'batlantiruvchi iqtisodiy vositalardir. Ular jumlasiga soliq imtiyozlari, subsidiyalar, yashil

kreditlar, ekologik investitsiyalar, texnologik modernizatsiya dasturlari va davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar kiradi. Ana shu iqtisodiy omillar korxonalarining ekologik mas'uliyatini oshirish, innovatsion yechimlarni tatbiq etish va barqaror ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalar darajasida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida turli iqtisodiy to'siqlar ham mavjud: moliyaviy resurslarning yetishmasligi, investitsion xavflarning yuqoriligi, ekologik texnologiyalar narxining qimmatligi, hamda ekologik foydani qisqa muddatda o'lchashning murakkabligi. Shu sababli ushbu maqolada O'zbekiston sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantiruvchi iqtisodiy omillar tahlil qilinadi, ularning samaradorligini oshirish yo'llari aniqlanadi hamda xorijiy tajribalar bilan solishtirma tahlil o'tkaziladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u nafaqat ekologik siyosatning iqtisodiy jihatlarini ochib beradi, balki sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish strategiyalariga iqtisodiy mexanizmlar orqali qanday ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslaydi. Shu bilan birga, bu tahlil O'zbekistonning "yashil" industrial transformatsiyasini jadallashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantiruvchi iqtisodiy omillarni aniqlash uchun tizimli va taqqoslama yondashuvlardan foydalanildi. Ma'lumotlar manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Ekologiya vazirligi hamda Statistika agentligining 2018–2024 yillardagi hisobotlari, shuningdek, BMT, Jahon banki va OECDning "Green Economy Transition" hamda "Green Growth Indicators" nashrlari tahlil qilindi. Xorijiy mamlakatlar (Xitoy, Koreya, Yevropa Ittifoqi) tajribasi asosida solishtirma tahlil o'tkazilib, ichki iqtisodiy mexanizmlar — soliq imtiyozlari, yashil kreditlar, investitsiyalar va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish — ning sanoat korxonalarini faoliyatiga ta'siri baholandi.

Adabiyotlar tahlili

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida iqtisodiy omillarning roli ko'plab xalqaro va milliy tadqiqotlarda chuqur o'rganilgan. Xususan, xorijiy adabiyotlarda sanoat korxonalarining ekologik barqarorlikka o'tishida investitsiyalar, innovatsiyalar, texnologik yangilanish va davlat siyosati asosiy rag'batlantiruvchi omillar sifatida ko'rsatiladi.

X. Ren va boshqalar o'z tadqiqotlarida ishlab chiqarish korxonalarida yashil innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi omillarni tizimli tahlil qilgan. Mualliflar 200 dan ortiq ilmiy manbalarni o'rganib, ularni o'n toifaga ajratgan - korxonalar hajmi, R&D faoliyati, hukumat siyosati, bozor raqobati va texnologik imkoniyatlar eng muhim omillar sifatida qayd etilgan. Ularning fikricha, korxonalar darajasida innovatsion faoliyatni kuchaytirish uchun iqtisodiy rag'batlar hal qiluvchi ahamiyatga ega¹.

Shunga yaqin fikrni S. Liu va hammualliflari ilgari suradi. Olimlarning tadqiqoti Xitoydagi ishlab chiqarish kompaniyalari misolida o'tkazilib, texnologik, tashkiliy va atrof-muhit omillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilgan. Ularning xulosasiga ko'ra, iqtisodiy

¹ Ren, X., & Mia, M. A. (2025). The determinants of green innovations in manufacturing industries: a systematic literature review. *Future Business Journal*, 11(1), 42.

omillar - xususan, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va resurslardan foydalanish imkoniyatlari - yashil texnologiyalarni joriy etish tezligini belgilovchi asosiy determinant hisoblanadi².

W. Li va boshqalar esa ishlab chiqarish korxonalarining yashil o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillar DEMATEL tahlil usuli orqali o'rgangan. Ular ekologik talablar, yashil bozorning kengayishi, davlat siyosati va texnologik taraqqiyot o'zaro ta'sirda korxonalarining iqtisodiy rivojlanishini belgilashini isbotlagan. Bu yondashuv iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari bilan texnologik innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatishni isbotlashgan³.

M. Wang va hammualliflar korxonalarining ekologik strategiyalarini moliyaviy natijalar bilan bog'lab tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil innovatsiyalar korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ularning ekologik imidjini yaxshilab, bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shu orqali iqtisodiy rag'batlantirish vositalarining ikki tomonlama - iqtisodiy va ekologik - samara berishi isbotlangan⁴.

Shuningdek, I. F. A. Prawira va hammualliflar tomonidan qilingan izlanishlarda ikki davlat o'rtasidagi yashil iqtisodiyot siyosati taqqoslab o'rganilgan. Tadqiqotda O'zbekiston tajribasida soliq imtiyozlari va investitsiya muhitining yetarli darajada rivojlanmagani, biroq strategik yo'nalishlar (energiya tejamkorlik, qayta tiklanuvchi energiya manbalari) ijobiy natijalar berayotganini ko'rsatadi⁵.

Mahalliy adabiyotlarda ham O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotning rivojlanish yo'nalishlari keng yoritilgan. A. Fazlitdin o'z tadqiqotlarida mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati va strategik yo'nalishlarini tahlil qilib, energiya samaradorligini oshirish va sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish uchun iqtisodiy rag'batlarning rolini alohida ta'kidlaydi. Muallif O'zbekiston sanoatida yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun davlat subsidiyalari, imtiyozli soliq rejimlari va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish zarurligini qayd etadi⁶.

O. Mubinaxonning tadqiqotlarida dunyo miqyosida yashil iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari va O'zbekistondagi tatbiq imkoniyatlari solishtirma tahlil qilingan. Tadqiqotda mamlakatda iqtisodiy rag'batlar, davlat-xususiy sheriklik tizimlari va ekologik investitsiyalarni kengaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Muallifning fikricha, bu omillar O'zbekiston sanoat korxonalarida yashil o'sishni jadallashtirishning asosiy iqtisodiy manbalari bo'lishi mumkin⁷.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantiruvchi iqtisodiy omillar ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi:

² Liu, S., Thursamy, R., & Hati, S. R. H. (2024). Determinants and Outcomes of Green Technology Innovation Adoption among Third-Party Logistics Firms in China: A SEM-ANN Analysis. *Systems*, 12(9), 331.

³ Li, W., & Wu, X. (2022). Identification and analysis of factors influencing green growth of manufacturing enterprises based on DEMATEL method—Wooden flooring manufacturing companies as a case. *Processes*, 10(12), 2594.

⁴ Wang, M., & Liu, Z. (2022). How do green innovation strategies contribute to firm performance under supply chain risk? Evidence from China's manufacturing sector. *Frontiers in Psychology*, 13, 894766.

⁵ Prawira, I. F. A., & Sofia, A. (2025). The Green Economy: A Comparative Study of Uzbekistan and Indonesia. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 42, 129-156.

⁶ Fazlitdin, A. (2025). The Need and Priority Directions of Transition to a "Green Economy" in Uzbekistan. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 43, 152-158.

⁷ Mubinaxon, O., & Kenjayev, I. (2025). Global Economy and Its Role in Uzbekistan. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 6(3), 723-730.

mikro darajada - korxonalar ichidagi innovatsion faoliyat, investitsiya va texnologik yangilanish orqali; makro darajada esa - davlat siyosati, moliyaviy rag'batlar, soliq imtiyozlari va ekologik me'yorlar orqali. Shu asosda, O'zbekiston uchun xorijiy tajribalarni moslashtirib, iqtisodiy rag'bat mexanizmlarini yanada takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini rag'batlantiruvchi iqtisodiy omillar tizimi hali shakllanish bosqichida bo'lsa-da, ayrim yo'nalishlarda sezilarli ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Korxonalar faoliyatida asosiy rag'batlantiruvchi omillar sifatida soliq imtiyozlari, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish uchun ajratilayotgan investitsiyalar, shuningdek davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan modernizatsiya dasturlari qayd etilgan.

Biroq, iqtisodiy rag'bat mexanizmlari asosan yirik korxonalarga yo'naltirilgan bo'lib, o'rta va kichik ishlab chiqarish subyektlari bu jarayonlardan yetarli darajada foydalana olmayapti. Ayniqsa, yashil texnologiyalarni xarid qilish va joriy etish bilan bog'liq xarajatlarning yuqoriligi ularning faol ishtirokini cheklab qo'ymoqda. Shu nuqtai nazardan, imtiyozli kreditlar, grant dasturlari va subsidiya mexanizmlarini kengaytirish zarurligi aniqlangan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2019–2030 yillarda “yashil iqtisodiyot”ga o'tish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar⁸

Maqsadli ko'rsatkichlar	Kutilayotgan natijalar
YaIM birligiga to'g'ri keluvchi issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish	2010-yil darajasiga nisbatan 10% ga kamaytirish
Energiya samaradorligini oshirish va yalpi ichki mahsulotning uglerod intensivligini kamaytirish	Ko'rsatkichni ikki baravar oshirish
Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish	Elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmining 25% ulushigacha yetkazish
Aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiya ta'minoti bilan qamrab olish	100% darajagacha yetkazish
Sanoat korxonalarining infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ularning barqarorligini oshirish, toza va ekologik texnologiyalarni keng joriy etish orqali energiya samaradorligini oshirish	Kamida 20% oshirish
Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish	Tomchilatib sug'orish texnologiyalarini 1 million gektargacha maydonda joriy etish va hosildorlikni 20–40% ga oshirish

⁸ Fazlitdin, A. (2025). The Need and Priority Directions of Transition to a “Green Economy” in Uzbekistan. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 43, 152-158.

Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish	O'rtacha ishlab chiqarish samaradorligini 20–25% gacha oshirish
---	---

O'zbekiston Respublikasining 2019-2030 yillarda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar mamlakat iqtisodiyotini ekologik va energetik jihatdan barqaror rivojlantirishni ko'zda tutadi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, asosiy yo'nalishlar energiya samaradorligini oshirish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, suvdan foydalanish samaradorligini yaxshilash hamda sanoat va qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan.

Birinchi maqsad - YaIM birligiga to'g'ri keluvchi issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yil darajasiga nisbatan 10% ga kamaytirish - O'zbekistonning Parij kelishuvidagi majburiyatlariga mos keladi. Bu natijaga erishish uchun energiya ishlab chiqarish va sanoat tarmoqlarida texnologik modernizatsiya, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish zarur.

Ikkinchi yo'nalish - energiya samaradorligini ikki baravar oshirish - mamlakat sanoatining raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Energiya intensivligining kamayishi nafaqat iqtisodiy foyda, balki ekologik yuklamani ham pasaytiradi.

Uchinchi badda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 25% gacha oshirish ko'zda tutilgan bo'lib, bu maqsad 2030-yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarishning muhim qismini quyosh va shamol manbalaridan ta'minlashni nazarda tutadi. Bu yo'nalish energetika tizimini diversifikatsiya qilish orqali resurslardan barqaror foydalanishni ta'minlaydi.

Shuningdek, aholini zamonaviy, arzon va ishonchli energiya ta'minoti bilan 100% qamrab olish vazifasi ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, yashil iqtisodiyotning ijtimoiy komponentini aks ettiradi.

Sanoat korxonalarining infratuzilmasini modernizatsiya qilish va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish orqali energiya samaradorligini kamida 20% oshirish maqsadi esa ishlab chiqarishning ekologik transformatsiyasini ifodalaydi. Bu nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali, chunki resurs tejamkor texnologiyalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

Suv resurslaridan foydalanishda tomchilatib sug'orish texnologiyalarini 1 million gektargacha maydonda joriy etish va hosildorlikni 20–40% ga oshirish chora-tadbiri esa qishloq xo'jaligida barqaror suv siyosatini shakllantirishga qaratilgan. Bu O'zbekiston sharoitida iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish uchun muhim yo'nalishdir.

Yakuniy ko'rsatkich sifatida asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini 20–25% gacha oshirish rejalashtirilgan bo'lib, bu oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va ichki bozorni barqaror ta'minlashni nazarda tutadi.

Umuman olganda, jadvaldagi ko'rsatkichlar O'zbekiston iqtisodiyotining "yashil" transformatsiyasiga yo'naltirilgan aniq iqtisodiy yo'nalishlarni belgilab beradi. Bu maqsadlarning amalga oshirilishi sanoat, energetika va qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanish modelini shakllantirib, mamlakatning xalqaro ekologik majburiyatlarini bajarish hamda iqtisodiy o'sishni ekologik muvozanatda saqlashga xizmat qiladi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tarkibida iqlim bilan bog'liq faoliyatlarga ajratilgan mablag'larning ulushi (%)⁹

Ijobiy iqlim bilan bog'liq xarajatlar	Iqlimga ta'sirni yumshatish bilan bog'liq xarajatlar	Iqlimga moslashuv bilan bog'liq xarajatlar	Salbiy iqlim bilan bog'liq xarajatlar
26 302,4 mlrd so'm (11,1%)	612,7 mlrd so'm (0,3%)	25 414,8 mlrd so'm (10,7%)	1 006,0 mlrd so'm (0,4%)

O'zbekiston Respublikasining 2019–2030 yillarga mo'ljallangan “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” doirasida iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va moslashuv choralarini moliyalashtirish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar O'zbekiston davlat byudjetida iqlim bilan bog'liq faoliyatlarga ajratilgan mablag'larning hajmi va tuzilmasini aks ettiradi.

Umumiy hisobda, 26,3 trillion so'm (ya'ni davlat byudjetining 11,1 foizi) iqlimga oid ijobiy xarajatlarga to'g'ri keladi. Bu mamlakat byudjetining sezilarli qismi iqlim barqarorligini ta'minlash, ekologik xavflarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq loyihalarga yo'naltirilayotganini ko'rsatadi.

Shundan 612,7 milliard so'm (0,3%) iqlim o'zgarishining ta'sirini yumshatishga yo'naltirilgan bo'lib, bu soha asosan issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bilan bog'liq dasturlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ulushning pastligi, mamlakatda hali ekologik investitsiyalar hajmini kengaytirish va texnologik modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Eng katta ulush - 25,4 trillion so'm (10,7%) - iqlimga moslashuv choralari uchun ajratilgan. Bu yo'nalish suv resurslarini boshqarish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini iqlim o'zgarishiga moslashtirish, eroziyaga qarshi choralar va ekologik infratuzilmani rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu raqam iqlim o'zgarishining O'zbekiston uchun dolzarbligini, xususan, qurg'oqchilik va suv tanqisligi xavflarini kamaytirish muhimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, 1,0 trillion so'm (0,4%) salbiy iqlim bilan bog'liq xarajatlarga to'g'ri keladi. Bunga, masalan, atrof-muhitga zarar yetkazuvchi yoki karbon izini oshiruvchi loyihalar kiradi. Ularning ulushi past bo'lishi ijobiy tendensiya bo'lib, davlat siyosati tobora “yashil” moliyalashtirish yo'nalishiga o'tib borayotganini bildiradi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston byudjeti iqlim o'zgarishi bilan bog'liq masalalarni milliy iqtisodiy siyosatning integral qismiga aylantira boshlagan. Biroq, iqlimga ta'sirni yumshatish bo'yicha xarajatlarning nisbatan kamligi, bu yo'nalishda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, yashil investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

⁹ Mubinaxon, O., & Kenjayev, I. (2025). Global Green Economy and Its Role in Uzbekistan. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 6(3), 723-730.

Mamlakatda iqlim siyosatini moliyalashtirish strukturasi shunday tahlili, davlat byudjetining kelajakda yanada samarali taqsimlanishi va ekologik transformatsiyani jadallashtirish uchun muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar xalqaro adabiyotlar bilan uyg'un ravishda, ichki iqtisodiy rag'batlar bilan tashqi omillar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhimligini ko'rsatadi. Shu orqali, sanoat korxonalarini uchun yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik majburiyat, balki iqtisodiy jihatdan foydali strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish - bu nafaqat ekologik zarurat, balki iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim strategik yo'nalishdir. Mamlakatning "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi - 2030" hujjati hamda iqlim bilan bog'liq faoliyatlarga ajratilayotgan byudjet mablag'lari bu yo'nalishda izchil siyosiy iroda va iqtisodiy asos mavjudligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil iqtisodiyotga o'tishni rag'batlantiruvchi asosiy iqtisodiy omillar - soliq imtiyozlari, ekologik investitsiyalar, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, davlat subsidiyalari hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, iqlim siyosati bo'yicha davlat xarajatlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud mablag'larning asosiy qismi iqlim o'zgarishiga moslashuv choralari uchun ajratilgan bo'lib, bu O'zbekiston iqtisodiyotining resursga bog'liqligi va suv tanqisligi muammolari bilan izohlanadi.

Sanoat tarmoqlarida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida moliyaviy resurslarning yetishmasligi, ekologik texnologiyalar narxining yuqoriligi, hamda o'rta va kichik korxonalar uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlarning cheklanganligi asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. Shu sababli, davlat tomonidan yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish, imtiyozli kreditlar va grant dasturlarini ko'paytirish, shuningdek xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish zarur.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning uzoq muddatli istiqbollari shuni anglatadiki, O'zbekiston uchun bu yo'nalish faqat ekologik foyda emas, balki iqtisodiy samaradorlik, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va barqaror o'sishni ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaralishi lozim. Shunday qilib, mamlakatda yashil iqtisodiyot modelini chuqur tatbiq etish - resurslardan tejamkor foydalanish, yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

References, Литературы, Adabiyotlar:

1. Ren, X., & Mia, M. A. (2025). The determinants of green innovations in manufacturing industries: a systematic literature review. *Future Business Journal*, 11(1), 42.
2. Liu, S., Thurasamy, R., & Hati, S. R. H. (2024). Determinants and Outcomes of Green Technology Innovation Adoption among Third-Party Logistics Firms in China: A SEM-ANN Analysis. *Systems*, 12(9), 331.
3. Li, W., & Wu, X. (2022). Identification and analysis of factors influencing green growth of manufacturing enterprises based on DEMATEL method—Wooden flooring manufacturing companies as a case. *Processes*, 10(12), 2594.

4. Wang, M., & Liu, Z. (2022). How do green innovation strategies contribute to firm performance under supply chain risk? Evidence from China's manufacturing sector. *Frontiers in Psychology*, 13, 894766.
5. Prawira, I. F. A., & Sofia, A. (2025). The Green Economy: A Comparative Study of Uzbekistan and Indonesia. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 42, 129-156.
6. Fazlitdin, A. (2025). The Need and Priority Directions of Transition to a "Green Economy" in Uzbekistan. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 43, 152-158.
7. Mubinaxon, O., & Kenjaye, I. (2025). Global Green Economy and Its Role in Uzbekistan. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 6(3), 723-730.

